

## TIKUV BUYUMLARINI BADIY BEZASHDA APPLIKATSIYA USULIDAN FOYDALANISH

**Xoshimova Maftunaxon Xoshimjon qizi**

Farg‘ona politexnika institute “Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi”  
kafedrası assistenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yengil sanoat sohasidagi tikuvchilik yo‘nalishida kiyimlarni bezashda applikatsiya usulidan foydalanish, va applikatsiya turlari ulardan to‘g‘ri foydalanish xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yengil sanoat, badiiy bezash, applikatsiya, gazlama.

Applikatsiya- lotincha so‘z bolib, yopishtirish degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni bir material turini ikkinchisining ustiga qo‘yib tikish yoki yopishtirishdir. Bunda biror ko‘rinishda (syujet, o‘simliklar, hayvonlar, geometrik shakllar va hokazo) ishlatiladigan materiallar xususiyatidan kelib chiqib, uni asosiy materialga tikish yoki yopishtirish mumkin [1-3].

Applikatsiya- texnik ijodkorlikning bir tarmog‘i bo‘lib, u turli shakllarni qirqish, joylash va asos (fon) deb atalgan materialga yopishtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Applikatsiya tayyorlash jarayonida kishining ijodkorlik qobiliyati shakllanadi, kuzatuvchanlik, e‘tibor, tasavur doirasi kengayadi, rang-tasvir, chamalash qobiliyati kuchayadi, sabr, chidamlilik, qo‘l mehnatiga bo‘lgan munosabati, badiiy didi ijobiy shakllanadi [4-9].

Yengil sanoat sohasidagi tikuvchilik yo‘nalishida applikatsiya usulida kiyimlarni bezashda foydalaniladi. Applikatsiyada kiyim- kechak va ro‘zg‘or buyumlarini bezash uchun gazlama, fetr, zamsh, charm turli rangdagi iplari, mo‘yna parchalaridan foydalaniladi, ya‘ni ularni bezak bo‘yicha asosiy gazlamaga qoplab, turli choklar: tekis chok, petlya chok, popop chok va hokazolar bilan chatib qo‘yiladi. Gazlamalarning turli-tumanligi, ularning rangi fakturasi qiziqarli va antiqa pannolar yaratishga yordam beradi. Applikatsiya bilan tikilgan buyumlar alohida dekorativ xarakterda bo‘lib, zamonaviy interyerga juda mos tushadi. Applikatsiya tikishda ko‘p eshilgan va rangli tabiiy ipak iplaridan foydalansa, va chok ko‘rinadigon bo‘lsa ya‘nada chiroyli ko‘rinadi [101-14].

Applikatsiya matoga har xil rang-barang bo‘laklardan ma‘lum bir qomatda qirqib, yopishtirib tukiladi. Applikatsiyalar asosan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar kiyimlarida turli mazmun va ko‘rinishlarda ifodalanadi. Applikatsiyalarni turli usullarda yaratish mumkin. Masalan, eng ko‘p va keng tarqalgan turi, qirqilgan mato bo‘lagiga qo‘shumcha joylashdan oldin uning ostidan, qirqilgan paket qismini qo‘yib joylashtiramiz. So‘ngra uning ustiga qog‘oz yopib qog‘ozning ustidan issiqlik vositasi dazmol yordamida orasiga qo‘yilgan yupqa paket erib matolarni bir biriga yopishtiradi. Qog‘ozni olgach applikatsiya sirtini qo‘l choki yoki mashinada yo‘rmaslab chiqiladi. Mashinadagi turli xil ziy choklar, zigzak va har xil naqshinkor choklar applikatsiyaga o‘zgacha tarovat bag‘ishlaydi. Applikatsiya yopishtiradigan boshqa detallarga ulamasdan bu ish amalga oshiriladi [15-19].

Applikatsiya mato rangiga qarab shunday tanlanishi kerakki, u asos matoga uyg‘unlashib ketishi kerak. Bundan tashqari applikatsiya hajmi ham kiyimning umumiy ko‘rinishiga, konstruksiyasiga va elementlariga mos bo‘lishi zarur. Ayniqsa applikatsiyani bolalar kiyimlariga juda katta e‘tibor bilan tanlanishi kerak [20,21].

Applikatsiya asosiy material ustidan qo‘yib, har xil shakl ko‘rinishida tikiladi. Bu yerda asosan applikatsiya qiyqim matodan tayyorlanib, ko‘p miqdorda mato talab qilinmaydi.

Applikatsiya har xil uslubda tayyorlanishi mumkin. Eng yaxshi yo‘li rasm tanlanib, so‘ng shu rasm asosida qoldiq matodan tayyorlashdir.

Har qanday mato turidan applikatsiya tayyorlash mumkin bo‘lsada, iloji boricha yupqaroq, mashina ishlovlariga qulay, tez titilib ketmaydigan matolarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

O‘ta yupqa va rangi chiqadigan kirishuvchan matolardan applikatsiya uchun foydalanilmaydi.

Shuni ham esda tutish kerakki, gazlama to‘qimasi yuvganda, kimyoviy usulda tozalanganda dazmollanganda o‘z xususiyatini yo‘qotishi kerak emas.

Applikatsiya matoga maxsus qotirma yordamida yopishtirilgandan so‘ng, shunday tikish kerakki, asos gazlama bilan applikatsiya bo‘laklari uyg‘unlashib ketishi zarur, buning uchun albatta yuqori sifatli ip tanlanadi. Yuqori sifatli va yaltiroq ko‘rkam iplar tabiiy ipakdan olingani ishlatilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi [22].

Applikatsiyaning alohida predmetli, butun bir mavzuli va dekorativ naqshli turlari bo‘ladi. Predmetli applikatsiyada bironta hayvon, gul, qush, barg, uy, mashina

va hokazo kabi narsalar tasvirlansa, mavzuli applikatsiyada ma'lum bir sharoit, ya'ni joy - bayram ko'rinishi, tabiat manzarasi tasvirlanadi. Dekorativ naqshli applikatsiya xayoliy, noan'anaviy shakllardan iborat bo'ladi.

Applikatsiyalar oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Shuningdek, applikatsiyani bajarishda bir xildagi yoki bir ijecha turdagi gazlama bo'laklaridan foydalanish mumkin.

Applikatsiya tayyorlash jarayoni ma'lum bir ketma-ketlikda bajariladi. Awalo applikatsiya mavzusi tanlanadi va shunga asosan eskiz chiziladi, so'ngra rang tanlanadi, shakl kesiladi, asosga joylashtiriladi va kashta tikib mahkamlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). Study of physical and mechanical properties of silk fabrics and their analysis. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.
2. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunova, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yengli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.
3. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). Ipak matolarining turlari va ularning tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.
4. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.
5. Sh, T. X., Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis Of The Range Of Modern Women's Coats. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(09), 18-23.
6. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 29-33.
7. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
8. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.



9. Maripdjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.
10. Tursunova, K., & Fozilov, S. (2022). Research on the Development of Daily Clothing Sets for Teenage Girls from BI-Component Knitted Fabrics. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 12, 26-28.
11. Odinabonu, R. (2022). Paltobop qalin gazlamalarning suv shimish xossalarining tahlili. *Scientific Impulse*, 1(4), 1626-1630.
12. Nazarova, M., Kayumov, J., & Tursunova, K. (2023, June). Development of heating coats in Uzbekistan on the basis of analysis of the technologies of local wool fibers processing in small enterprises. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
13. Tursunova, X., & Ruzimatova, O. (2023). Ayollar murakkab bichimli kiyimlarida yenglar taxlili. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(7).
14. Sodiqovna, A. M., & Abduqodirovna, B. R. N. (2022). Notipaviy qomatli ayyollarning o'lchamlari va tana turlarining farqlanishi. *Science and innovation*, 1(A3), 284-288.
15. Baxtiyorovna, N. B. (2022). Development of Structures of Double Patterned Weaves With Elements of Press Loops With A Geometric Pattern. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 175-181.
16. Каримов, Н. М., Абдусаттаров, Б. К., Махмудова, Г., & Саримсаков, О. Ш. (2021). Пневматическая транспортировка хлопка-сырца на хлопкозаводах. In *Инновационные Подходы В Современной Науке* (pp. 61-70).
17. — Сидиков, А. Х., Махмудова, Г., Каримов, А. И., & Саримсаков, О. Ш. (2021). Изучение движения частиц хлопка и тяжёлых примесей в рабочей камере пневматического очистителя. *Universum: технические науки*, (2-2 (83)), 51-56.
18. Tursunova, X., & Ruzimatova, O. (2023). Palto modellari shakllariga gazlama xususiyatining ahamiyati va qomatga joylashuvining taxliliy yechimlari. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(7).
19. O'g'li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the

program “Solidworks”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(10), 222-229.

20. Odiljonovich, T. Q. (2021). About automation of loading and unloading of cotton raw materials at cotton factory stations. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2068-2071.

21. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. Academia Science Repository, 4(04), 32-35.

22. Davronbek, T. (2023). Clo3d yordamida ayollar qomatlarini hamda unda kiyim o ‘rnavhuvini tahlil qilish orqali kiyim dizaynini ishlab chiqish. Scientific Impulse, 1(8), 599-603.



---

# Research Science and Innovation House

